

DORIVOR O'SIMLIKLARNI UY SHAROITIDA KO'PAYTIRISH VA INSON SALOMATLIGIGA BO'LGAN TA'SIRINI O'RGANISH

*Anvarjonova Mushtariybonu Avazbek qizi
Prezident Ta`lim Muassasalari Agentligi qoshidagi
Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan
Maktabning 7 B sinf o`quvchisi*

Rejalarim:

- A. Dorivor o'simliklar haqida umumiy tushuncha**
- B. Dorivoro'simliklarning turlari**
- C. Dorivor o'simlik turlari haqida ma'lumot**
- D. Daromad**

Maqsadim: Dorivor o'simlik yangi turini aniqlab, davosi topilmagan kasalliklar uchun foydalanish va boshqa mamlakatlarga eksport qilish.

Dorivor o'simliklar haqida umumiy tushuncha

Dorivor o'simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi

Ma'lumotlar:

- Bugungi kunda tabiiy dori vositalarini ishlatish, dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va xom ashyosini ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Dorivor o'simliklar- bu xalq tabobatida, tibbiyotda yoki veterinariya amaliyotida, profilaktika va davolash maqsadida ishlatiladigan o'simliklarga aytiladi.
- Dorivor o'simliklarni yillik aylanmasi 3,26 mlrd. dollarni tashkil etadi. Xitoy, Hindiston, Germaniya davlatlari dorivor o'simliklar eksporti bo'yicha yetakchidavlatlarni qatoriga kiradi.

Dorivor o'simliklar turlari.

Na'matak, achchiq miya, zubtutum, cherkez, isiriq, aloe, itsigak, qizil miya, anor, bodom, do'g'buy, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', it burun omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shuvoq, yantoq, yalpiz.

Na'matak

- Na'matakning zararli tomonlari:

• Na'matakni hammaga ham iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. U o'zida ko'p kistolarni saqlashi sabab ham, oshqozon gastriti va yarasidan aziyat chekuvchilarga u tavsiya etilmaydi. Na'matakdan tayyorlangan damlamalarni qon bosimi tushgan insonlarga ichish tavsiya qilinmaydi. Bundan tashqari na'matakli choyni muntazam va ko'p miqdorda iste'mol qilish, infeksiyasiz sariq kasalligiga olib kelishi mumkin.


Na'matakni foydali tomonlari

- Na'matak o'zida ko'pgina C guruhga vitaminlar saqlaydi; qorag'atga nisbatan 10 marotaba, limonga nisbatan 50 marotaba ko'proq.
- u imunitetni mustahkamlab, organizmni sog'lom qiladi.
- yurak va qon-tomir tizimiga yaxshi ta'sir qiladi.
- qon bosimini normallashtiradi;
- kamqonlikda ham foydali sanaladi;
- ozishga yordam beradi;
- o't va siydik haydovchi vosita sanaladi.



Zubtutum

- Zubtutum-zubtutumdoshlar oilasiga mansub 1-2 va ko'p yillik o'tlar turkumi. 260 tacha turi malum. O'zbekistonda 6ta turi bor.
- Bargi va urug'i tarkibida S va K vitamin, karotin, shilimshiq oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bargidan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini, yaralarni davolashda, urug'ining shilimshiq eritmasi esa kuchsiz surgi sifatida ishlatiladi



Cherkez

Sho'radoshlar oilasiga mansub yirik buta yoki daraxt. O'rta Osiyoning qumli cho'llari, Eron va Avfg'onistonda o'sadi. Barglari 4 metrcha, barglari ingichka, deyarli ipsimon 4-8sm. Gullari ko'rimsiz, gulqo'rg'oni oddiy, besh bo'lakli. O'zbekistonda qumli yerlarida keng tarqalgan. Yemxashak va dorivor o'simlik Xashagi to'yimli, mevasidan dorivor moddalar, yangi barglaridan g'alaba bo'yoqlarni olinadi, yagdil novdalari sovun tayyorlashda ishlatiladi. Urug'i, qalamchasi va ildiz bachkilaridan ko'payadi.



Aloe (aloy)

Loladoshlar oilasiga mansub, doimiy yashil, ko'p yillik o'tlar (ba'zan daraxtlar) turkumi. Tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan. Qariyb 180 turi ma'lum. Aloe turlari gultuvakda ham ekiladi. Ularni bargi semiz, sersuv, qalin va tikanli.

Aloe haqida ma'lumotlar

Aloe bargidan quritib olinadigan shira-sabur surgi sifatida, konservatsiya qilingan sharbati esa turli yaralarni, kuygan terini, gastritni davolashda ishlatiladi. Aloeni bargidan olinib konservatsiya qilingan biostimulyatorlarga boy ekstrakta organizm mustahkamligini oshiruvchi vosita sifatida teri ostiga yuboriladi.




Yalpiz

Yalpiz yorug'sevar, namsevar o'simlik. Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma va damlamasidan ko'ngil ayniganda hamda o't haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Barglari va poyasidan olingan yalpiz moyi parfumeriya, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda, bahorda yangi chiqqan barglari oshko'k sifatida ishlatiladi. Vegetativ (bahorda ildizini bo'lib ekish) yo'li bilan ko'paytiriladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida nam yerlarida, ariq va daryo bo'ylarida o'sadi.



Dorivor gulxayri

Dorivor gulxayrining yer ustki qismida ajratib olinadigan uglevodlar aralashmasidan "mukaltin" nomli dorivor preparat olinadi. Mukaltin preparatini balg'am ko'chiruvchi dori sifatida yuqori nafas yo'llari va o'pka yallig'lanishi kasalliklari sifatida ishlatiladi.



Dalachoy

Iyun-sentabrda gullab, urug'laydi. Tarkibida oshlovchi moddalar, efir moylari va S vitamini bor. Xalq tabobatida me'da-ichak kasalliklarida va qon aralash ich ketganda ishlatiladi.



Isiriq

Tabobatda tutqanoq,tomoq og'rig'i, zaxm kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Urug'idan jun,gazlama va shoyilar uchun bo'yoq olinadi.



Daromad

Men dorivor o'simliklardan na'matakni tanladim.Men bu o'simlik haqida umumiy ma'lumotlar to'pladim va ko'payishi bilan ham tanishib chiqdim.Men bu o'simlikni ekdim,hozirda barg chiqarmoqda,keyinchalik kurtak chiqarib gullay boshlaydi. Gullab,meva bergandan so'ng uni dorivorligini sinab ko'rib,amin bo'lganimdan so'ng bozor yoki do'konlarga olib chiqib sotuvga qo'yaman va buni 4 yil davomida sotib ancha daromadga ega bo'laman.Maktabni bitirib o'zimga yoqqan,nasib qilgan o'qishga kirib,u yerda ham o'qishim bilan bu ishni olib boraman.Katta maydon qilib u yerga na'matakni qalamchalaridan ko'paytiraman va u yerda 2yoki undan ortiq ishchini ish bilan ta'mirlayman ya'ni ular men o'qishda yoki ishda bo'lganimda na'mataklarni parvarish qilishadi.Yoki uni ota-onam yoki oilamdagi insonlarga o'rgatib qo'ysam ular ham men boshqa joydaligimda qarab turadi.Men bu ishimdan daromadga ega bo'lganimda bu pullarni11-qiynalgan oilalarga beraman so'ng ota-onamni Umra safariga olib boraman.Keyin u ishimni davom ettirish davomida boshqa bir dorivor o'simlikni aniqlab uni ko'paytiraman.Mening bu ilmiy ishdan ko'zlagan maqsadlarim shulardan iborat.

Na'matakning daromati va ko`rsatgichlari

1-yil:

2-yil:

3-yil:

4-yil:

5-yil:

6-yil:

7-yil:

8-yil:

Qancha foyda ko'rilgan:

1-yil:

2-yil:

3-yil:

4-yil:

5-yil:

6-yil:

7-yil:

8-yil:

Men bu ilmiy ishni tanlab,shug'ullanayotganimdan xursandman.

Foydalanilgan qo'llanmalar:

1. www.Zira.uz.
2. www.Wikipedia
3. www.AGRO.UZ
4. www.Arxiv.uz